

MUHAMMAD SHAYBONIYXON VA ISMOIL SAFAVIY O‘RTASIDAGI MAKTUBLASHUV

Qayumov Zokirjon Shokirjon o‘g‘li

Namangan davlat universiteti

Tarix yo‘nalishi magistranti

ANNOTATSIYA

Ilmiy maqolada o‘z davrining qudratli hukmdorlaridan bo‘lgan Shayboniyxon va shoh Ismoil Safaviy o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar tarixiy manbalar asosida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Shayboniyxon, Ismoil Safaviy, “Olamoroyi Safaviy”, “Taixi Rashidiy”, “Abdullanoma”, “Musaxxir al-bilod” .

XVI asr boshlarida Shayboniyxon va Safaviylar davlatlari o‘rtasidagi munosabatlar O‘rta Osiyoninggina emas, Sharq siyosiy hayotida katta o‘rin tutadi. Bu davrda Movarounnahr va Xurosonning katta qismi shayboniyxon, Xurosonning yarmi, Iroq, Ozarbayjon esa Safaviylar qo‘l ostida edi. Eron davlati hukmdori Shoh Ismoil Safaviy (1487-1524) va O‘zbek davlati hukmdori Muhammad Shayboniyxon (1451-1510) o‘rtasida boshlangan kurash sunniy-shia nizolari bilan yanada kuchayib , ikki o‘rtada urush kelib chiqadi.

Urushdan avval Ismoil Safaviy va Muhammad Shayboniyxon Amir Temur va Yildirim Boyazid kabi bir-birlarini sinash, birinchi bo‘lib yurish qilish uchun bahona izlab, maktub almashishadi. XVI asrda yozilgan muallifi noma‘lum “Olamoroyi Safaviy”, Mirzo Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy”, Hofiz Tanish Al - Buxoriyning “Abdullanoma”, Muhammadiy ibn Arab Qatag‘anning “Musaxxir al-bilod” asarlarida Shayboniyxon va Ismoil Safaviy o‘rtasidagi xat almashinuvi haqida qimmatli ma‘lumotlar keltirilgan.

Hofiz Tanish Al –Buxoriyning “Abdullanoma” (“Sharfnomayi shohiy“) asarida bu haqda shunday ma‘lumotlar berilgan. “Shayboniyxon har doim shoh Ismoilga elchi orqali shu mazmunda xabar yuborar edi: Yo ota-bobolaringning yo‘li bo‘lgan ahli sunnat va jamoat shevasini qabul qil, yoki urushga shaylanib, urush va jang qilib gumrohlik yo‘lini ilgari sur”

Bundan tashqari, “Olamoroyi Safaviy” asarida keltirilishicha, dastlab Muhammad Shayboniyxon Ismoil Safaviyga quyidagi mazmunda xat yozadi: “Biz Makka va Madina ziyoratiga borish niyatimiz borligini ma‘lum qilamiz. Iltimos, agar Iroqda buzilgan yo‘llar va ko‘priklar bo‘lsa, ularni tuzatib qo‘ying”. Ushbu maktub

mazmunidan Muhammad Shayboniyxonning soʻz oʻyiniga guvoh boʻlamiz, yaʼni Shoh xat orqali Ismoil Safaviyni xushyorlikka chorlab, boʻlajak jangga hozirlik koʻrishini, ular tez orada koʻrishishlarini bildirmoqda, geosiyosiy nuqtayi nazardan ikki davlatning toʻqnashishi muqarrar edi. Shu tufayli Shayboniyxon toʻgʻridan-toʻgʻri urush eʼlon qilmay, Makka va Madina ziyoratiga borishi orqali urush haqida xabar bermoqda.

Mirzo Muhammad Haydar “Tarixi Rashidiy” asarida Shoh Ismoil dastlabki yozishmalarda, keskin javob bermaganligini aksincha murosa qilishga uringanligini taʼkidlaydi, negaki bu paytda Eron azaliy raqiblaridan biri Usmoniylar imperiyasi bilan urush harakatlari olib borayotgan edi. “Shohibekxon tasarrufidagi yerlarning chegaralari Iroq zaminiga borib tutashganda, oʻzbeklar Xurosonning oʻsha chegara kentlariga hujumlar uyushtirishdi. Shoh Ismoil qimmatbaho sovgʻa-salomlar va maktub bilan Shohibekxonga kishi yuborib, xatda shunday soʻzlarni bitgan: “Koʻp zamonlardan beri ahdnomalarga amal qilinib, ikkala tarafning koʻngliga kelishmovchilik chang-gʻuborlari qoʻnmagan edi, shu sababdan oramizda gina-advovat izlari yoʻq edi. Agar u tarafdin otalik qoidasi namoyon boʻlsa, bu tarafdin farzandlik munosabatlari mustahkamlangusidir.

Nazm:

Shirin hosil berar - doʻstlik daraxtin oʻtqaz,ey inson,
Muxoliflik niholin yulki, bergay gʻam-alam, armon”.

Shoh Ismoil ana shunday sulh, maktubini yozib yubordi”.

Maʼlumki, Muhammad Shayboniy va Shoh Ismoil oʻz davrining oʻqimishli, qilich va qalamni teng tutgan hukmdorlar sirasidan edilar, Shayboniyxon “Shohbaxt” Ismoil Safaviy esa “Xatoiy” taxalluslari bilan sheʼrlar yozib, ijod qilishgan edi, shu sababli ikki humdor yozishmalarida yuqoridagi kabi nazmlarga duch kelamiz. Shayboniyxon saltanat tasarrufiga sohibqiron Amir Temur zabt etgan yerlarni kiritishni orzu qilardi, tezroq maqsadiga erishish istagi va Shoh Ismoilning holidan xabardorligi uchun javob xatida u urush keltirib chiqaruvchi quyidagi gaplarni yozadi: “Har bir kishi onasining emas, otasining hunari bilan mashgʻul boʻlgani durust. Negaki Uzun Hasan qizini otangga bergan kundan boshlab u zamon malikalari qatoridan chiqqan. Bizning zamonimizda bir ona xuddi mendek sultondan boʻlgan sultonni tugʻmasa edi, sen ona tomondan saltanat daʼvosini qilishing mumkin edi. Axir “Oʻgʻil otaning hunarini qilsin, qiz - onaning” degan maqol bor-ku”. Shunga oʻxshash soʻzlar bilan maktubini tugatib, elchiga topshirdi. Bir tayoq, bir janda, bir qovoq kachkul (darveshlar xaltasi) hadya qilib yubordi: “Agar sen otang hunarini unutkan boʻlsang, bu hadyalar orqali men uni yodingga solyapman”. Bu orqali Muhammad Shayboniyxon Shoh Ismoilning ona tomondan hukmorlar ota tomondan shayxlar avlodi ekanligini eslatib qoʻymoqchi boʻladi.

Shayboniyxonning maktubiga javoban Shoh Ismoil quyidagicha javob berdi: “Agar har bir o‘g‘ilga otaning hunari bilan mashg‘ul bo‘lish lozim bo‘lganida edi, unda hamma odamlarga, ular Odam alayhissalomning avlodlari bo‘lganligi bois payg‘ambar bo‘lish lozim bo‘lardi. Agar meros sifatida farzandga o‘tishi zarur bo‘lganida edi, unda podsholik Peshdodiylardan Kayoniylarga o‘tmagan bo‘lardi. Podsholikni Chingiz qanday yo‘l bilan qo‘lga kiritganu sen qanday qo‘lga kiritgansan? Shohibekxonning tuhfasiga javoban unga charx va duk jo‘natib, maktubga shunday so‘zlarni qo‘shdi: “Sen menga nomangda nimani yozgan bo‘lsang, men xam senga shuni aytaman. Endi men sen bilan kurash kamarini belimga bog‘lab, hech bir xayallamay oyog‘imni jang uzangisiga qo‘yaman. Agar sen menga qarshi chiqsang, ikkimizning bir-birimizga qilgan da‘volarimiz jang maydonida hal bo‘ladi. Mabodo maydonga chiqmasang, unda men yuborgan charxni yigirib o‘tiraver”. Bunday maktublar ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarning keskinlashishiga sabab bo‘ladi hamda bu davlatlar o‘rtasidagi nizolar yanada kuchaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘z davrining kuchli siyotchi va mohir qo‘mondonlari bo‘lgan Shayboniyxon hamda Ismoil Safaviy o‘rtasida bir necha marotaba xat almashish bo‘lib o‘tadi. Har ikki hukmdor ham qalam tebratishdan xabardor bo‘lganligi uchun turli xil so‘z o‘yinlari orqali o‘zlarining fikrlarini bayon etadilar. Bunday diplomatik so‘z o‘yinlari oqibatida ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlar yanada keskinlashadi. Natijada Shayboniylar va Safaviylar sulolalari o‘rtasida urush harakatlari boshlanadi. Ikki sulola orasidagi nizo va mojarolar Shayboniyxon hamda Ismoil Safaviy vafotidan keyin ham davom etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Hofiz Tanish al-Buxoriy . Abdullanoma. (Sharafnomai shohiy) / Fors tilidan S.Mirzayev tarjimasini. So‘zboshi va izohlar muallifi B.Ahmedov. 1-kitob. –T.: Sharq, 1999.
2. Muhammad Haydar mirzo. Tarixi Rashidiy / V.Rahmonov va Ye.Egamova tarjimasini. –T.: Sharq, 2010.
3. Polvonov A.K. “Tarixi Rashidiy” asarida Sharqiy Turkiston va Tibetga oid ma’lumotlar: Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –T ., 2012.
4. Zamonov A.T. Buxoro xonligi tarixi. –T .: Bayoz, 2021.
5. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/muhammad-shayboniyxon-gazallar-xurshid-davron-muhammad-shayboniyxon-haqida.html>
6. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she-riyati/ozarbayjon-she-riyati/shoh-ismoil-xatoiy-1486-1524>
7. <https://xabardor.uz/uz/post/kibrdan-kelgan-jazo-hiylaga-alidanib-boshsiz-qolgan-shayboniyxon-2-qism>